ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6/2-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24562545

Pedagogik bilimlar transferi tushunchasi: mohiyati, turlari va tarkibiy tuzilishi

Abduvoxidova Umidaxon Shuxratjon qizi –
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: u.abduvoxidova@fdu.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-1108-6836

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning tayanch tushunchalaridan biri bo‘lgan “pedagogik bilimlar transferi” tushunchasining mazmuni nazariy jihatdan tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda e’lon qilingan xorijiy va MDH tadqiqotlari asosida bilimlar transferiga oid yondashuvlar (bir xil elementlar nazariyasi, “past yo‘l” va “yuqori yo‘l” transferi, yaqin va uzoq transfer, transferning ko‘p o‘lchovli modellari) hamda o‘qituvchining umumpedagogik bilimlariga oid tadqiqotlar qiyosiy o‘rganiladi. Tahlil asosida tushunchaga mualliflik ta’rifi beriladi, pedagogik bilimlar transferi yetti mezon bo‘yicha tasniflanadi va uning to‘rt komponentli tarkibiy tuzilishi (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyatli, refleksiv-baholovchi) asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik bilimlar transferi, transfer turlari, yaqin va uzoq transfer, past va yuqori yo‘l transferi, o‘qituvchi bilimlari, tarkibiy tuzilish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.*

Понятие трансфера педагогических знаний: сущность, виды и структурное содержание

Аннотация. *В статье теоретически анализируется содержание понятия «перенос педагогических знаний» одного из ключевых понятий подготовки будущих учителей начальных классов. На основе зарубежных и российских исследований последних лет сопоставляются подходы к переносу знаний (теория идентичных элементов, «нижний» и «верхний путь» переноса, близкий и дальний перенос, многомерные модели переноса), а также исследования общепедагогических знаний учителя. На этой основе дается авторское определение понятия, предлагается классификация переноса педагогических знаний по семи критериям и обосновывается его четырёхкомпонентная структура (мотивационно-ценностный, когнитивный, операционно-деятельностный и рефлексивно-оценочный компоненты).*

Ключевые слова: *перенос педагогических знаний, виды переноса, близкий и дальний перенос, «нижний» и «верхний путь» переноса, знания учителя, структура, будущий учитель начальных классов.*

The concept of pedagogical knowledge transfer: essence, types, and structural components

Annotation. *The article offers a theoretical analysis of "pedagogical knowledge transfer", a key concept in the preparation of prospective primary school teachers. Drawing on recent international and Russian-language research, it compares approaches to transfer: the theory of identical elements, low-road and high-road transfer, near and far transfer, and multidimensional models of transfer. Research on teachers' general pedagogical knowledge is also considered. On this basis, the author proposes a definition of the concept, classifies pedagogical knowledge transfer according to seven criteria, and substantiates its four-component structure: motivational-value, cognitive, operational, and reflective-evaluative.*

Keywords: *pedagogical knowledge transfer, types of transfer, near and far transfer, low-road and high-road transfer, teacher knowledge, structure, prospective primary school teacher.*

KIRISH

Pedagogik ta'lim sifati ko'p jihatdan bo'lajak o'qituvchining universitetda egallagan bilimlarini sinfdagi real vaziyatda ishlata olishiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni va mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [1]. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun esa kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yagona ta'lim tizimining tarkibiy qismi deb hisoblaydi [2]. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi diplom olgan kuniyoq maktab amaliyotida bilimlarini ishlata olishi davlat siyosati darajasida qo'yilgan talabdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Biroq xalqaro tadqiqotlarda nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish o'qituvchilar tayyorlashning eng barqaror muammolaridan biri sifatida qayd etiladi. F. Korthagen avval nazariyani berib, keyin uni amaliyotda qo'llashni kutadigan an'anaviy yondashuv o'qituvchilar amaliyotiga kuchli ta'sir ko'rsata olmaganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'qituvchining o'rganishi ko'p hollarda ongsiz kechadi va kognitiv, emotsional hamda motivatsion o'lchovlarni qamrab oladi [3]. M. Kennedy kasbiy rivojlanish dasturlarini tahlil qilib, o'qituvchi yangi g'oyalarni o'z sinfida amalga oshirishi (*enactment*) asosiy muammo ekanini ko'rsatadi. Bunga yordam beradigan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi esa turlicha bo'lib chiqqan [4].

Bu muammoning psixologik-pedagogik mohiyati "bilimlar transferi" tushunchasida aks etadi. Oddiy misol: talaba "Pedagogika" fanidan rag'batlantirish metodlarini a'lo bahoga topshiradi, ammo amaliyotda darsga qiziqmay o'tirgan o'quvchiga duch kelganda shu bilimni eslamaydi ham. Bilim bor, lekin u yangi vaziyatga "ko'chmaydi". O'zbek tadqiqotchilari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida pedagogik amaliyotning alohida o'rnini ta'kidlaydi [5]. Biroq o'zbek tilidagi pedagogik adabiyotlarda "transfer" tushunchasi ko'pincha umumiy ma'noda, ya'ni "bilimlarni amaliyotda qo'llash" sifatida ishlatiladi. Uning mazmuni, turlari va tarkibiy tuzilishi esa alohida tadqiqot predmeti bo'lmagan. Maqolada quyidagi nazariy metodlardan foydalanildi: tarixiy-qiyosiy tahlil (transfer nazariyalarining rivojlanish bosqichlarini aniqlash uchun), tushunchaviy-terminologik tahlil ("transfer", "bilimlarni qo'llash", "ko'chirish" tushunchalarini farqlash uchun), tizimli-tarkibiy tahlil (tushuncha komponentlarini ajratish uchun), umumlashtirish va modellashtirish. Tahlil uchun psixologiya va o'qituvchilar

tayyorlash sohasidagi ko‘p iqtibos keltirilgan klassik ishlar hamda O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’limga oid me’yoriy hujjatlari tanlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazariyalar tahlili asosida “pedagogik bilimlar transferi” tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifi berildi: Pedagogik bilimlar transferi – bo‘lajak o‘qituvchining oliy ta’limda egallagan pedagogik, psixologik va metodik bilimlarini yangi, o‘zgaruvchan dars vaziyatida ishlatishi. Bu jarayon vaziyatni tanib olish, unga mos bilimni tanlash, bilimni sharoitga moslashtirish, qo‘llash va natijani refleksiv baholash orqali amalga oshadi. Pedagogik bilimlar transferi ham ongli faoliyat jarayoni, ham uning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’rif uchta muhim belgini o‘z ichiga oladi. Birinchisi – yangilik: vaziyat o‘quv jarayonidagi namunadan farq qiladi. Ikkinchisi – moslashtirish: bilim tayyor holda emas, balki o‘zgartirilgan holda qo‘llanadi. Uchinchisi – refleksiya: natija baholanadi va bilimning o‘zi boyiydi. Ayni shu belgilar transferni yaqin tushunchalardan ajratib turadi. Bilimlarni qo‘llash tanish, namunaviy vaziyatda yuz beradi. Masalan, talaba seminarda ko‘rilgan dars ishlanmasini shu mavzuda takrorlaydi. Transfer esa namuna bo‘lmagan joyda yuz beradi. Masalan, o‘qish darsida o‘rganilgan savol berish usulini matematika darsidagi muammoli vaziyatga moslab ishlatish. Boshqacha aytganda, qo‘llash – “tanish yo‘ldan yurish”, transfer esa “notanish joyda xaritadan yo‘l toppish”. Pedagogik bilimlar transferining umumiy transferdan farqi shundaki, unda ko‘chiriladigan bilimning o‘zi kasbiy xususiyatga ega: u boshqa insonlar, ya’ni o‘quvchilar faoliyatini boshqarishga yo‘naltirilgan.

1-jadval.

Pedagogik bilimlar transferi turlarining tasnifi

Tasniflash mezoni	Turlari	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatidan misol
Kontekstlar o‘xshashligi	Yaqin; uzoq	Yaqin: seminarda tahlil qilingan darsni amaliyotda shu sinfda o‘tish. Uzoq: o‘qish darsidagi savol berish usulini tabiiy fanlar darsiga ko‘chirish
Ko‘chish mexanizmi	Past yo‘l (avtomatik); yuqori yo‘l (ongli abstraksiya)	Past yo‘l: darsni tashkiliy boshlash rutinasini mashq orqali egallash. Yuqori yo‘l: “o‘quvchi faolligi” tamoyilini anglab, yangi topshiriq tuzish
Yo‘nalish	Oldinga yo‘naltirilgan; orqaga yo‘naltirilgan	Oldinga: ma’ruzada “bu bilim qaysi vaziyatda kerak bo‘ladi?” deb oldindan o‘ylash. Orqaga: sinfdagi muammoga duch kelib, kursda o‘rganilganlarni izlash
Natija	Ijobiy; salbiy	Salbiy: o‘zi o‘qigan maktabdagi faqat yod oldirishga asoslangan usulni tanqidsiz takrorlash
Ko‘chiriladigan bilim turi	Fan mazmuni, umumpedagogik, o‘quv dasturi, pedagogik-mazmuniy, o‘quvchilar haqidagi, kontekst haqidagi, ta’lim maqsadlari va qadriyatlari haqidagi bilimlar transferi	Pedagogik-mazmuniy bilim transferi: alifbe davrida tovush-harf tahlilini o‘quvchining yoshiga mos tushuntirish
O‘zgaradigan kontekst o‘lchovi	Fan sohasi, jismoniy, vaqt, funksional, ijtimoiy, modallik bo‘yicha transfer	Ijtimoiy: talabalar guruhida o‘tkazilgan mikrodarsdan to‘liq sinf jamoasiga o‘tish. Vaqt: kursda o‘rganilgan bilimni bir necha oydan keyin amaliyotda ishlatish
Kasbiy tayyorgarlik bosqichi (muallif taklifi)	O‘quv transferi; amaliyot transferi; kasbiy transfer	O‘quv: auditoriyada pedagogik vaziyat (keys) yechish. Amaliyot: pedagogik amaliyotda metodist kuzatuvi ostida dars o‘tish. Kasbiy: mustaqil faoliyatda yangi muammoni hal qilish

Tasnif shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun eng murakkab, ayni paytda eng zarur tur – uzoq, yuqori yo‘l va orqaga yo‘naltirilgan transferdir. Sababi, universitet auditoriyasidan maktab sinfiga o‘tishda bir vaqtning o‘zida bir necha kontekst o‘lchovi o‘zgaradi: jismoniy muhit, vaqt, ijtimoiy tarkib va faoliyat vazifasi [10; 11]. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bir necha fanni o‘qitadi. Shu sababli fanlararo uzoq transfer uning kundalik ishiga aylanadi.

Tizimli-tarkibiy tahlil natijasida pedagogik bilimlar transferining to‘rt komponenti ajratildi. Ular o‘zaro bog‘langan holda yagona jarayonni tashkil etadi.



1-rasm. Pedagogik bilimlar transferining tarkibiy tuzilishi

Motivatsiya jarayonni ishga tushiradi, kognitiv baza resurs beradi, operatsion amallar bilimni vaziyatga ko‘chiradi, refleksiya esa bilim bazasini va motivatsiyani boyitib, siklni yopadi. Motivatsion-qadriyatli komponent jarayonni ishga tushiradi. U talabaning nazariy bilimni amaliyot uchun qadrli deb bilishi va yangi vaziyatda bilimga murojaat qilishga ichki moyilligini (dispozitsiyasini) ifodalaydi. F. Korthagen o‘qituvchining o‘rganishi kognitiv o‘lchov bilan birga emotsional va motivatsion o‘lchovlarni ham qamrashini ko‘rsatadi [3]. Transferning integrativ modelida ham shaxs o‘lchovi alohida omil sifatida ajratilgan [11]. Agar talaba "nazariya amaliyotda kerak emas" degan fikrda bo‘lsa, eng yaxshi bilim ham ko‘chmaydi.

Kognitiv komponent transferning resursi hisoblanadi. U.L.Shulman toifalari bo‘yicha tizimlashtirilgan, tushunib o‘zlashtirilgan bilimlar bazasidan iborat [12]. Yuqori yo‘l transferi uchun bilim alohida faktlar sifatida emas, balki tamoyil va qoida darajasida umumlashtirilgan bo‘lishi kerak [6; 7].

Operatsion-faoliyatli komponent transferning ishchi mexanizmi. U to‘rt ketma-ket amalni o‘z ichiga oladi: 1) vaziyatni tanib olish va tahlil qilish; 2) mos bilimni faollashtirish va tanlash; 3) bilimni vaziyat sharoitiga moslashtirish; 4) qo‘llash. H. Ulferts ta’kidlaganidek, o‘qituvchi bilimni pedagogik vaziyatga qarab qo‘llaydi, buning uchun esa bilimni amaliyotga aylantiruvchi maxsus ko‘nikmalar kerak [12]. Bu ko‘nikmalar aynan shu amallarda namoyon bo‘ladi.

Refleksiv-baholovchi komponent jarayonga teskari aloqa beradi: natija baholanadi, xato anglanadi, bilim qayta tuziladi. F. Korthagenning o‘qituvchi o‘rganishida refleksiyaning ahamiyati haqidagi xulosalari [3] va pedagogik amaliyotda nazariya va amaliyotni bog‘lovchi refleksiyani qo‘llab-quvvatlash tajribasi [14] ushbu komponentning nazariy asosidir.

Komponentlar chiziqli emas, spiral shaklida bog‘langan. Refleksiya natijasida kognitiv baza boyiydi, muvaffaqiyatli tajriba esa motivatsiyani kuchaytiradi. Natijada keyingi transfer osonroq kechadi.

Taklif etilgan ta’rif transferga oid ikki an’anani birlashtiradi. Birinchisi, transferni o‘zlashtirilgan bilim yoki usulni yangi sharoitda ishlatish deb qaraydigan klassik yondashuv [6]. Ikkinchisi, transferni o‘rganishning istalgan bosqichida yuz beradigan va refleksiya orqali kuchayadigan ko‘p o‘lchovli jarayon sifatida talqin qiladigan zamonaviy yondashuv [6; 11]. Ta’rifdagi refleksiv baholash bosqichi ana shu ikki qarashni bog‘laydi. O‘qituvchi bilimni ko‘chiribgina qolmaydi, balki har bir yangi vaziyatdan bilimini boyitib chiqadi.

Tushunchani bunday aniqlashtirish baholash amaliyoti uchun bevosita ahamiyatga ega. Agar “Pedagogika” yoki xususiy metodikalar bo‘yicha nazorat faqat ta’rif va tasniflarni qayta aytib berishni talab qilsa, u transferni emas, balki eslab qolishni o‘lchaydi. Transferning murakkab va ko‘p omilli tabiatini hisobga olsak [11], uni yagona ko‘rsatkich bilan baholash yetarli emas. Yu. Tyumeneva va I. Shklyaeva ham bilimlarni qo‘llashga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarini baholash mezonlariga oid xulosalar chiqargan [10]. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda transfer darajasini aniqlashda 2-jadvaldagi mezonlarga tayanish, xususan, yaqin va uzoq transferni hamda bilim toifalarini alohida tekshirish maqsadga muvofiq.

Tarkibiy tuzilma o‘quv jarayonini loyihalash uchun ham yo‘nalish beradi. Har bir komponentga o‘quv jarayonida alohida “tayanch nuqta” kerak:

motivatsion-qadriyatli komponent uchun – nazariyaning amaliy qiymatini real maktab misollarida ko‘rsatish;

kognitiv komponent uchun – bilimni tamoyil darajasida umumlashtirish va fanlararo bog‘lash;

operatsion-faoliyatli komponent uchun – amaliyotni qismlarga ajratib mashq qilish va unga bosqichma-bosqich yaqinlashish [13];

refleksiv-baholovchi komponent uchun – tajriba va nazariyani tizimli ravishda bog‘laydigan refleksiya [14; 15].

Boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xosligi transfer talablarini yanada kuchaytiradi. Fan o‘qituvchisidan farqli ravishda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tili va o‘qish, matematika, tabiiy fanlar va boshqa fanlarni bir sinfda o‘qitadi. Demak, umumpedagogik va pedagogik-mazmuniy bilimlarni bir fandan boshqasiga ko‘chirish uning kundalik faoliyatining bir qismidir.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy tahlil quyidagi xulosalarga olib keldi.

1. Bilimlar transferi nazariyalari vaziyatlar o‘xshashligiga asoslangan yondashuvdan [6] o‘quvchining ongli abstraksiyasi va refleksiyasiga asoslangan, ko‘p o‘lchovli yondashuvga [6; 7; 11] tomon rivojlangan. Pedagogik ta’lim uchun keyingi yondashuv ko‘proq mos keladi.

2. Pedagogik bilimlar transferi bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik, psixologik va metodik bilimlarini yangi dars vaziyatida tanib olish, tanlash, moslashtirish, qo‘llash va refleksiv baholash orqali ishlatishidir. Uni bilimlarni qo‘llashdan yangilik, moslashtirish va refleksiya belgilari ajratib turadi.

3. Pedagogik bilimlar transferi yetti mezon bo‘yicha tasniflanadi: kontekstlar o‘xshashligi, ko‘chish mexanizmi, yo‘nalish, natija, bilim toifasi, kontekst o‘lchovi va kasbiy tayyorgarlik bosqichi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun eng muhimi uzoq, yuqori yo‘l va fanlararo transferdir.

4. Tushunchaning tarkibiy tuzilishi to‘rt komponentdan iborat: motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyatli va refleksiv-baholovchi. Komponentlar spiral shaklida o‘zaro bog‘langan.

Olingan natijalar keyingi ikki vazifani hal etish uchun nazariy asos bo‘ladi. Ulardan biri bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik bilimlar transferi darajasini aniqlash mezon va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish. Ikkinchisi transferni rivojlantirish mexanizmlarini loyihalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

3. Korthagen F. Inconvenient truths about teacher learning: Towards professional development 3.0, Teachers and Teaching: Theory and Practice. – 2017. – Vol. 23, No. 4. – P. 387–405.

4. Kennedy M.M. How does professional development improve teaching? Review of Educational Research. – 2016. – Vol. 86, No. 4. – P. 945–980.

5. Tursunova N.S. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik amaliyotini tashkil etishning afzalliklari Konferensiya materiallari. – 2023. – 1-qism. – B. 48–50.

6. Hajian S. Transfer of learning and teaching: A review of transfer theories and effective instructional practices // IAFOR Journal of Education. – 2019. – Vol. 7, No. 1. – P. 93–111.

7. Тюменева Ю.А., Шкляева И.В. Эффект самостоятельного выведения принципа из комплексной учебной задачи для последующего переноса, Вопросы психологии. – 2017. – № 4. – С. 27–39.

8. Sala G., Gobet F. Does far transfer exist? Negative evidence from chess, music, and working memory training, Current Directions in Psychological Science. – 2017. – Vol. 26, No. 6. – P. 515–520.

9. National Academies of Sciences, Engineering, and Medicine. How People Learn II: Learners, Contexts, and Cultures. – Washington, DC: The National Academies Press, 2018. – 346 p.

10. Тюменева Ю.А., Шкляева И.В. Два подхода к пониманию «применения знаний»: трансфер и моделирование. Обзор литературы и критика, Вопросы образования. – 2016. – № 3. – С. 8–33.

11. Galoyan T., Betts K. Integrative transfer of learning model and implications for higher education, The Journal of Continuing Higher Education. – 2021. – Vol. 69, No. 3. – P. 169–191.

12. Ulferts H. The Relevance of General Pedagogical Knowledge for Successful Teaching: Systematic Review and Meta-analysis of the International Evidence from Primary to Tertiary Education, OECD Education Working Papers. – No. 212. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 101 p.

13. Grossman P. (Ed.). Teaching Core Practices in Teacher Education. – Cambridge, MA: Harvard Education Press, 2018. – 224 p.

14. Stenberg K., Rajala A., Hilppö J. Fostering theory–practice reflection in teaching practicums, Asia-Pacific Journal of Teacher Education. – 2016. – Vol. 44, No. 5. – P. 470–485.

15. Hennissen P., Beckers H., Moerkerke G. Linking practice to theory in teacher education: A growth in cognitive structures, Teaching and Teacher Education. – 2017. – Vol. 63. – P. 314–325.